

## “MONA LISA” NING YARATILISH TARIXI VA UNGA BERKITILGAN SIRLAR

**Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich**

*SamDCHTI o'qituvchi*

**Sadinova Sevinchbonu Shonazar qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** O'z davrining yorqin vakillaridan biri, mashhur italyan rassomi Leonardo da Vinching jahon san'ati durdonasiga aylangan ushbu asari ustida juda ko'p izlanish va tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada bu surat hali-hamon ko'plab sirlar og'ushida san'at shaydolarini lol qoldirib kelmoqda.

**Annotation:** Although many studies have been conducted on this masterpiece of world art, created by the famous Italian artist, one of the brightest figures of his time, Leonardo da Vinci, this painting is still shrouded in many mysteries and surprised art fans.

**Аннотация:** Хотя по этому шедевру мирового искусства, созданному знаменитым итальянским художником, одной из ярчайших фигур своего времени Леонардо да Винчи, было проведено множество исследований, эта картина до сих пор окутана множеством загадок и удивляет любителей искусства.

**Kalit so'zlar:** *Mona Lisa, portret, Leonardo da Vinci, Salai, Florensiya*


**Key words:** *Mona Lisa, portrait, Leonardo da Vinci, Salai, Florence*

**Ключевые слова:** *Мона Лиза, портрет, Леонардо да Винчи, Салаи, Флоренция*

Leonardo da Vinci- birinchi psixologik portret asoschisi. Yuqori uyg'onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinci san'atining ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rди, matematika, mexanika, fizika sohasida ilg'or fikrlarni ilgari surgan. Leonardo da Vinci “Mona Lisa” (Jakonda) asarini 1503yilda Florensiyada yaratadi. Ushbu portret jahon rang-tasvirining mashhur yodgorligidir.<sup>24</sup> “Mona Lisa” portreti bilan Yevropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi. Aslida xotirjam, o'z suhbatdoshiga nisbatan samimiy va mehr ko'zi bilan boqib o'tirgan florensiyalik oddiy ayol tasvirlangan. Uning ortida murakkab tabiat ko'rinishi aks ettirilgan ayol shutabiatning ajralmas qismi va u bilan uzviy bog'langan.<sup>25</sup>

<sup>24</sup> Shomurodov O.N Tasviriy san'at tarixi- Buxoro 2021 [55-bet]

<sup>25</sup> Shomurodov O.N Tasviriy san'at tarixi- Buxoro 2021 [56-bet]



Suratning italyan tilidagi to'liq nomlanishi- Ritratto di Monna Lisa del Giocondo “Lisa Giocondo xonim portreti”. Rassom bu asarga umrining salmoqli qismini sarflagan hamda balog'at yoshida Italiyadan ketayotib boshqa bir nechta asarlari bilan birga uni ham Fransiyaga olib ketgan. Ushbu jumboqli asar ustida tadqiqotchilar asrlar davomida bosh qotirmoqda. Italiyalik olimlar da Vinchi rasmida juda kichik harflar va raqamlar ketma-ketligini qoldirib fitnaga yana bir o'lchov qo'shdilar. Unga mikroskop orqali qaralganda “Mona Lisa”ning o'ng ko'zida LV harflar ko'rindi. Va chap ko'zida ham ba'zi belgilar mavjud, ammo boshqalar kabi sezilarli emas. Ular CE harflariga yoki B harfiga o'shaydi. Bu belgilar aynan nimani anglatishi hamon sirligicha qolmoqda. Uning yana bir ahamiyatli jihatni shundaki ko'pgina tomoshabinlar “Mona Lisa” obrazida barcha noziklik va nafosatning mavjudligiga qaramay, unda qandaydir erkaklik borligini va uning qosh va kipriklardan mahrum bo'lgan yuzi erkaklarga o'xshab ko'rinishini ta'kidlashadi.

Leonardo da Vinci- sirli musavvir. Shu bilan birga, “Mona Lisa” jumbog'ini yechishni istovchilarning yangi-yangi topilmalari paydo bo'lgani sari asrlar mobaynida musavvir shaxsiga bo'lgan qiziqish olovi so'nmaydi, bil'aks yangicha kuch bilan yolqinlanaveradi.<sup>26</sup>



Mona Lisa



Salai

<sup>26</sup> Olga Chyornaya "Yechilmagan jumboq"

Leonardo da Vinci haqidagi ba'zi ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki rassom o'z asarida o'zi yoqtirgan shogirti Salaini gavdalantirgan va buni ommadan berkitish maqsadida uni ayol ko'rinisha tasvirlagan. Da Vinci o'z muhabbatini shu yo'sinda isbotlagan deb taxmin qilish mumkin. U portretni yaratish uchun umrining 15 yilini sarf etgan va hatto safarlarda bo'lган davrida ham jarayonni to'xtatib qo'yмаган. Rassom kambag'al oilada dunyoga kelgan bir bolani asrab oladi va uni Salai (shaytoncha) deb chaqiradi. Uning boshqa suratlarini ham chizadi. Vaqt o'tishi bilan o'z shogirti Salaiga nisbatan yaqinlik sezalaydi. Salaining surati bilan "Mona Lisa"ning portreti taqqoslanganda ular orasida juda o'xshashlikni sezish mumkinligi aytildi. Bunda burun qismi, ko'z qarashlari, sochlari va tabassumi bir-biriga juda o'xshashligini ko'rish mushkul emas.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shomurodov O.N Tasviriy san'at tarixi- Buxoro 2021 [55-bet]
2. Shomurodov O.N Tasviriy san'at tarixi- Buxoro 2021 [56-bet]